

«KASSANDRA TAMG'ASI» — «X VARIANT» YOXUD KELAJAKKA OGOHNOMA

Yusupova Sevinch Otabek qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2-bosqich talabasi

Phone number: +998934545509

e-mail: YusupovaS239@gmail.com

Annotation

This article provides an artistic analysis of Chingiz Aitmatov's work «Cassandra's seal». The author of the article thought about the content of the work, its essence, its place in our lives, the author's epic purpose. The article concludes with a summary of the work and its significance.

Key words

philosophical literature, myth, mythological subject, literary fantasy

Annotatsiya

Ushbu maqolada Chingiz Aytmatovning «Kassandra tamg'asi» asari badiiy jihatdan tahlil qilingan. Maqola muallifi asar mazmuni, mohiyati, uning hayotimizda tutgan o'rni, yozuvchining epik maqsadi haqida fikr yuritgan. Maqola so'ngida asarning hayotiy xulosasi, ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar

falsafiy adabiyot, mif, mifologik mavzu, adabiy fantaziya

Insoniyat tarixida XX asr va XXI asr shu qadr ulkan o'zgarishlarha sabab bo'ldiki, ularning barchasini to'g'ri hazm qilishga odamzot hamon oqsamoqda. Natijada inson hayotining asl missiyasi, kelajagi haqida bir qator xavotirlar kelib chiqmoqda. Adabiyot sohasi vakillari ham bu xavotirlardan holi emas, albatta.

Qirg'iziston xalq yozuvchisi, jamoat arbobi, Xalqaro Nobel mukofoti laureati Chingiz Aytmatovning «Kassandra tamg'asi» romani ana shunday asarlardan biridir. Chingiz Aytmatovning ushbu kitobi Suyun Qorayev tomonidan muallifning roziligi bilan 1995-yilda ona tilimizga o'girilgan va o'zbek kitobxonlariga taqdim etilgan.

«Kassandra tamg'asi» ilk bor 13-14 yoshlarimda maktab kutubxonasi orqali qilingan tushgan. Biroq yoshligim sababmi, asarning mohiyatini anglolmaganimdanmi uni nihoyasiga yetkazolmaganman. Oradan bir necha yillar o'tib esa ichki bir ishtiyoq va kuchli xohish bilan qayta mutolaani boshladim. Bu safar kitob meni chuqur o'yga, qayta-qayta o'qishga, kelajagimiz haqida, Yerimiznin, o'zimizni, o'zligimizni asrash uchun shoshilish kerakligini tushunishga majbur qildi. O'z-o'zimga qayta-qayta «Yer yuzining parokandalikka, falokatga, yuz tutishining tezlashishida biz odamlar qanchalik aybdormiz?!», «Bizga berilgan in'omlarga, mo'jizalarga loyiq bo'la oldingi?!», «Kelgusida bizni nimalar kutmoqda?!» kabi savollarni bera boshladim.

Tasavvur qilib ko'ring, biz shunchalar ko'p yovuzliklar, gunohlar, yaramasliklar qildimki, Yer yuzi balchiqqa to'ra botqoqqa aylanib bormoqda. Natijada esa hali ona qornida endigina paydo bo'lgan go'dak embrion bu dunyoning naqadar kirligini, o'zini daxshatli kelajak hayot kutib turganini biladi va tug'ilishdan bosh tortadi. Uni dunyoga keltirmasliklarini so'rab homilador ona peshonasida dog', nishona, mening fikrimcha, esa iltimosnoma jo'nata boshlaydi. Muallif ana shu belgini «kassandra tamg'asi» deb ataydi. Chingiz Aytmatovning asarlarida afsonalar, mif unsurlari hamda folklor namunalariga ko'p murojaat qilishi ma'lum. Yozuvchining o'zi ham bu haqida: «Deyarli har bir asarimda mifologik mavzularga murojaat qilganman. Chunki u juda boy manbadir», deya ta'kidlaydi. («Yoshlik» jurnali, Orif Tolib tarjimasidan).

Qadimgi Yunon afsonalariga ko'ra, Cassandra bashoratchi bo'lgan. Appolonning muhabbatini rad etgani uchun Appollon uni shunday la'natlaydiki, ma'budaning bashoratlari hech kim ishonmay qo'yadi. Haqiqatni bilib tursang, falokatning sodir bo'lajagidan voqif bo'lsang, odamlarni ogohlantirsang-u biror zog' ishonmasa, ana eng mushkul vaziyat. Mahoratli ijodkor qadim Yunon donishmandligi asosida bugunning qahramoni ichki tug'yonlarini chambarchas qilib, adabiy-falsafiy romanini yaratadi.

Asar qahramoni, o'zini-o'zi galaktikaga quvg'in qilgan Filofey ham Cassandra kabi «yolg'on» haqiqatlar qurboniga aylanadi. U kassandra embrionlari haqidagi olamshumul kashfiyotni amalga oshiradi. Rohib Filofey ushbu kashfiyoti bilan insoniyatga jarlikka yuz tutayotganini, oxir zamon yaqinlashayotganligini, insonlar o'zlarining turli gunohlaridan, qora ishlaridan voz kechishi kerakligini tushuntirmoqchi bo'ladi. Lekin o'z xatosini tan olish, anglash, o'zining zulmatli tomonlarini ko'rish baxti hammaga ham birdek nasib qilmagan uchun Yer yuzining turli shaharlaridan olima qarshi «urush» boshlanib ketadi. Turli mamlakatlarda qarshiliklar, mitinglar avj oladi. Hatto fohishalar, mafiyalar, odam savdosi bilan shug'ullanuvchilar Filofey ularning insoniy huquqlarini paymol qilayotganligidan shikoyat qilishadi.

Nega deysizmi? Negaki, agar odamzot yomon illatlaridan voz kechishiga to'g'ri kelsa, avvalo, yuqoridagilarning zarariga ishlaydi-da. Rohibning kashfiyotlariga ijobiy fikr bildirgan, uning xavotirlari mag'zini chaqa olgan kelsa futurolog olim Robert Borkning olomon qilib o'ldirilishi esa sayyoramiz kishilarining vahshiylik cho'qqisiga chiqayotganligini ko'rsatadi.

Chingiz Aytmatov o'z adabiy uslubi, ilmiy-badiiy fantaziyasi yordamida insoniyatni ogohlikka chaqiradi. Omonulla Fayziyev ham o'zining rkman haqidagi maqolasida quyidagi fikrlarni keltiradi:» Chingiz Aytmatov yozganidek, dilemma paydo bo'ldi: yo bizlar qanday yashagan bo'lsak, shunday yashaymiz, beparvolik bilan o'zimizni o'zimiz ovutib-aldab, yoki kassandra-embriionlarning ko'payish sabablarini anglab, uning oldini olish, "oxirgi zamon"dan qutulish yo'lini qidirish kerak? Mana shunday yechimni tanlov jahon xalqlari oldida ko'ndalang turibdi». Darhaqiqat, asar insoniyat oldiga muhim bir savol qo'yadi: Buyog'iga nima qilish kerak?! Aslini olganda ushbu ritorik so'roqning javobi o'zi bilan birga. Odamlar berilgan ne'maylarga shukronalik qilish barobarida ularni asrash uchun ham mas'uldir. Yaxshilikni faqat o'ziga tilamoq, o'zgani o'ylamaslik baxillikdir. O'zga ham o'z qondoshimiz, yelkadoshimiz, dunyodoshimiz, farzandlarimiz, kelajagimizdir. Ularning ertasi, kelajagi, farovon hayotini nokaslashtirmaslik, Yaratganning yaratqiqlarini sevish va asrash, iymon yo'lida ayrilmaslik, omonatga xiyonat qilmaslik yakka-yu yagona yo'limizdir!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chingiz Aytmatov. Kassandra tamg'asi. Yangi asr avlodi , 2014.
2. Omonulla Fayziyev. Yozuvchining ilmiy fantaziyasi. Jahon adabiyoti jurnali 2005. – 6-son
3. Rustam Ibragimov, Aytmatov ijodida ikki tabiat talqini
4. Chingiz Aytmatov, Tanlangan asarlar. 2018
5. Dilmurod Quronov, Adabiyot nazariyasi asoslari. Akademnashr, 2018